

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ADILCHAEV BAHADIR POLATOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QISHLOQ
JOYLARDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)**

**08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD)
in Economics Sciences**

Adilchaev Bahadir Polatovich

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq joylarda agroturizmni rivojlantirish
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) 3

Адилчаев Бахадир Полатович

Развитие агротуризма в сельской местности в условиях модернизации экономики (на
примере Республики Каракалпакстан)..... 29

Adilchaev Bahadir Polatovich

Development in the context of economic modernization (on the example of the Republic of
Karakalpakstan) 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.01.2020.I.20.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ADILCHAEV BAHADIR POLATOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QISHLOQ
JOYLARDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)**

**08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2111 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Norchayev Asatullo Norbo'tayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Mirzaev Batir Jienbayevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.1.20.06 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil « 10 » dekabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (227 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 26 » noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil « 26 » noyabr dagi № 55 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turizm sohasining rivojlanib borish tendensiyasiga ko'ra sohaning hududiy va tarmoq xususiyatlarini o'zida mujassam etgan agroturizmni samarali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, "2025-yilga borib xalqaro turistlarning soni 1,9 mlrd. kishiga, turizmdan olinadigan daromad 3 trln. AQSH dollarga yetishi, turistik oqimning barqaror ravishda har yili 3-5% ga, an'anaviy turizm turlariga bo'lgan talabning uch barobarga oshishi sharoitida agroturizm ommalashib jahon turizm bozorining 7-10% ga to'g'ri kelishi kutilmoqda"¹. Bugungi kunda qishloq joylarda agroturizmni rivojlantirish birinchi navbatda turizm sohasini hududda kompleks rivojlantirishning drayver asosi sifatida qaralmoqda.

Jahonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar tarkibida agroturizmni samarali rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada ekologik keskinlashuv sharoitida agroturizmni maqsadli tashkil etish, "inson va tabiat" muloqotining samarali shakli sifatida agroturizmni ratsional tashkil qilish, agroturizm raqobatbardoshligini ta'minlashda hududiy va tarmoq imkoniyatlarini samarali uyg'unlashtirish, agrobiznes infrastrukturasini rivojlantirish barobarida jarayonga IT texnologiyalarini keng qo'llash kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda turizm sohasini, jumladan agroturizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar turlarini kengaytirish, agroturizm infratuzilmalarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda agro, eko, madaniy-ma'rifiy va rekreatsiya tadbirlarni muvofiqlashtirilgan holda tashkil qilish kabi yo'nalishlarni sifat jihatdan yangi pog'onaga olib chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «...Yurtimiz boy hayvonot va o'simlik dunyosi, betakror landshaft manzarasi, milliy an'analar va taomlar oshxonasi bilan sayyohlar e'tiborini qozonib keladi».² Bu borada agro-turistik samaradorlikni oshirishda maqsadli turistik marshrutlarni ishlab chiqish, aholi yashash tarziga ko'ra turistik marshrutlarni muvofiqlashtirish, agroturizmni istiqbolda rivojlantirishga ko'ra mintaqalarda agroturizmni jadal va samarali tashkil qilish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son³ "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida», 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-

¹ Han H., Hsu, L. T., & Sheu, C. (2010). Application of the theory of planned behavior to green hotel choice: Testing the effect of environmental friendly activities. *Tourism Management*, 31, 325–334.

² Shavkat Mirziyoyev. Turizmni yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish materiallari // Xalq so'zi, 2017-yil 4-oktabr, 1-bet.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son – www.lex.uz

4889-son “2020-2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Agroturizmning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq turizm strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar I.Krippendorf va qisman R.Yung, Ceballos-Lascrain, H.Jonsson, P.M.Birjakov, K.Ivanovskayalar⁴ va boshqalarning fundamental tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasida agroturizmni shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishida S.Tuxliyev, T.Abdullayeva, M.Alimova, A.Eshtayev, O.Saidmamatovlar⁵ Samarqand, Xorazm viloyatlari va Farg‘ona vodiysida qishloq turizmini tashkil qilish hamda qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan korxona va fermer xo‘jaliklarini turizm sektoriga integratsiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, keyingi yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha S.Salayev, J.Sauxanov, A.Alimov, N.Atamuratovlar⁶ bir qator takliflarini bergan.

O‘ziga xos madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ega Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizmni rivojlantirish, qishloq joylarda turistik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, aholini ish bilan ta‘minlash yuzasidan muallifning yondashuvi

⁴ 1975 y. Jost Krippendorf «Die Landschaftsfresser»; 1980 г. R. Yung, «Мягкий туризм» («Sanfter Tourismus»), или «экологически и социально ответственный туризм»; 32. Ceballos-Lascrain, H., 2001: Integrating Biodiversity into the Tourism Sector: Best Practice Guidelines. Report submitted to UNEP/UNDP/GEF/ BPSP; Й. Кrippендорфа, главная цель новой политики туризма, первоначально названного этим автором тихим, или спокойным, туризмом, состоит в том, чтобы долговременно обеспечивать физический и духовный отдых возможно большему числу людей в непосредственном контакте с ландшафтом, а также в отвечающих ландшафту и потребностям отдыхающих формам поселений с учётом долговременных интересов местных жителей (Ingo Mose, 1988). 27; Биржаков М. Введение в туризм. - СПб.: Издательский Торговый Дом "Герда", 2008. - 576 с.; Jonsson, P., 2000. Handbook for Sustainable Tourism. West Sweden Tourist Board.

⁵ Alimov A.K. Turizmni rivojlantirish orqali qishloq hayoti barqarorligini ta‘minlash // Qoraqalpoq davlat universitetida 2016-yil 23-may kuni «Demografik rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va Respublikada migratsion siyosat» mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy konferentsiya to‘plami. – Nukus, 2016. – B. 20-22. 101; Тохлиев И., Абдуллаева Т. Управление и организация бизнеса и туризма в Узбекистане. - Т.: Гос. Науч. «Национальная энциклопедия Узбекистана», 2006. - 386 с. 105; Тухлиев И. Туризм асослари. – Самарқанд: SamSI, 2010. - 271 б.; Eshtayev A. “Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi” //“O‘zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami. - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2011-yil 20-dekabr Respublikasida turizm infratuzilmasining rivojlanishi // Iqtisodiyot va ta‘lim. –T.: 2017, №2. – B. 84-88. (08.00.00; №11).

⁶ Alimov A.K., Sauxanov J.K. Сильные и слабые стороны сектора туризма в республике Каракалпакстан // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – Samarqand, 2014. – B. 40-43.; Alimov A.K., Salayev S.K. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm infratuzilmasining hozirgi holati va istiqbollari // Демографик ривожланишнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари ва Республикада миграцион сиёсат. Республика илмий–амалий конференция тўплами. – Нукус, 2016. – Б. 17-20; Атамуратова Н. Б. «Влияние Информационных Технологий на развитие Туризма Узбекистана» // Бюллетень науки и практики. - 2020. - №12.

asosida amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, PZ-2017-092718 – “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha hamda 2018-2020 yillarda bajarilgan PZ-2017-0928465 – “Qoraqalpog‘istonda agroturizmni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari” mavzusidagi davlat amaliy granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq joylarida agroturizmni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligining yordamchi tarmoqlarini isloh qilishda faoliyatni diversifikatsiya qilish yo'nalishlaridan biri sifatida agroturizm tushunchasining mohiyatini o'rganish;

O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tadqiq qilish;

mintaqada ekologik turizmning resurs salohiyatini baholash;

Qoraqalpog‘istonda agroturizmni rivojlantirishda qishloq hududlarning rolini asoslash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizm xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini, shuningdek, mintaqada agroturizmni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish;

mintaqaning agroturizm jozibadorligini baholash algoritmini ishlab chiqish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarining tabiiy va madaniy resurslari kompleksini hisobga olgan holda agroturizmni rivojlantirish modellari va shakllarini aniqlash;

mintaqada yangi turistik marshrutlar asosida agroturizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaq qishloq joylarida agroturizmni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasida turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi davlat va xo'jalik yurituvchi korxonalar, tashkilotlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq joylarida agroturizmni rivojlantirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, tanlanma kuzatuv, taqqoslash,

korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘istonning boy tabiati, madaniy merosi va tarixiy-arxeologik majmualarining agroturistik samaradorligini oshirishda ustuvor darajada qishloqlar ekzotik obyektlarini (gujum teraklar, tutzorlar, jiydazorlar, hovuzlar va b.) pasportlashtirish va ularni maqsadli turistik marshrutlarga kiritish va chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan shug‘ullanuvchi uylarni agroturizm xizmatlariga jalb qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

agroturizmni samarali tashkil qilishda qishloq mehmon uylarini jadal tashkil qilish, bir kundan ortiq xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishda aholi yashash tarziga ko‘ra turistik marshrutlarni ishlab chiqish, turobyektlarga eltuvchi yo‘llar bo‘yida xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarini DXSh negizida rivojlantirish kabi mexanizmlar asoslangan;

sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari, ichki zaxira va imkoniyatlar, shart-sharoitlar hamda agroturizmni istiqbolda rivojlantirishga ko‘ra mintaqaning janubiy, markaziy va shimoliy tumanlarida joylashgan fermer xo‘jaliklarida agroturizm xizmatlarini jadal tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

mintaqaning o‘ziga xos madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga ko‘ra agroturizm turlari va shakllanishining o‘zaro bog‘liqligi asosida agroturizm assotsiyatsiyasini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizmni tashkil qilishda qishloq xo‘jaligining yordamchi tarmoqlari turlari aniqlashtirilgan;

turizmni diversifikatsiya qilish yo‘nalishlaridan biri sifatida agroturizm tushunchasining mohiyati ilmiy aniqlashtirilgan;

mintaqada ekologik turizmning resurslar salohiyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizm xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

mintaqada agroturizmni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar strategik o‘rganish orqali aniqlashtirilgan;

mintaqada yangi turistik marshrutlar asosida agroturizmni rivojlantirish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda tadqiqotdagi ma‘lumotlar Butunjahon turizm tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Turizm qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi, tegishli

tashkilotlarning rasmiy ma'lumotlaridan olingani hamda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar mintaqalarda agroturizm salohiyatidan va tashkiliy-iqtisodiy omillaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqada agroturizm salohiyatidan kengroq foydalanib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish, turizm va agroturizmni rivojlantirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agroturizmni rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

Qoraqalpog'istonning boy tabiati, madaniy merosi va tarixiy-arxeologik majmualarining agroturistik samaradorligini oshirishda ustuvor darajada qishloqlar ekzotik obyektlarini (gujum teraklar, tutzorlar, jiydazorlar, hovuzlar va b.) pasportlashtirish va ularni maqsadli turistik marshrutlarga kiritish va chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanuvchi uylarni agroturizm xizmatlariga jalb qilishning maqsadga muvofiqligi takliflari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining ish faoliyatida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 24-maydagi №03-12-17-3265-son ma'lumotnomalari). Mazkur takliflar agroturizmni samarali rivojlantirish barobarida mehmon uylari faoliyatini maqsadli tashkil qilish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish, oilalar turmush sharoitini yaxshilash, agroturizmni ommalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, hududlar infratuzilmasini muvofiq holda rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

agroturizmni samarali tashkil qilishda qishloq mehmon uylarini jadal tashkil qilish, bir kundan ortiq xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishda aholi yashash tarziga ko'ra turistik marshrutlarni ishlab chiqish, turobyektlarga eltuvchi yo'llar bo'yida xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini DXSh negizida rivojlantirish kabi mexanizmlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan istiqbolda turizmni rivojlantirishning hududiy dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 24-maydagi 03-12-17-3265-son hamda Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 9-

yanvardagi 01/03-15-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklif xorijiy tajriba (Tunis, Rossiya, XXR va b.)dan samarali foydalanish, qishloq joylarida va tabiiy-rekreatsion hududlar atrofida yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish ishlari samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari, ichki zaxira va imkoniyatlar, shart-sharoitlar hamda agroturizmni istiqbolda rivojlantirishga ko'ra mintaqaning janubiy, markaziy va shimoliy tumanlarida joylashgan fermer xo'jaliklarida agroturizm xizmatlarini jadal tashkil qilish bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan istiqbolda turizmni rivojlantirishning hududiy dasturini ishlab chiqishda va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi faoliyatida foydalanilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 24-maydagi 03-12-17-3265-son va Savdo-sanoat palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2024-yil 8-yanvardagi 01/10-01-son ma'lumotnomalari). Takliflar mintaqaning janubiy, markaziy va shimoliy tumanlarida fermer xo'jaliklari imkoniyatlarini turistik ishlab chiqarishga jalb qilgan holda agroturizm xizmatlari hajmini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

mintaqaning o'ziga xos madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga ko'ra agroturizm turlari va shakllanishining o'zaro bog'liqligi asosida agroturizm assotsiyatsiyasini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan istiqbolda turizmni rivojlantirishning hududiy dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 24-maydagi 03-12-17-3265-son, Qoraqalpog'iston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2024-yil 9-yanvardagi 01/03-15-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklif qoraqalpoq milliy madaniyati, urf-odatlarini qamrab olgan baxshilar festivali va milliy to'ylar kabi tadbirlarni tashkil qilishda e'tiborga olinishi xorijiy turistlar oqimining ortishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari izohlab berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Agroturizmni ruvojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati”** nomli birinchi bobida agroturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari, turizmga agroturizm turlarining tasnifi va tavsifi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizmni ruvojlantirishda xorij tajribalarini qo‘llash tajribalari muhokama qilingan.

«Agroturizm» tushunchasining paydo bo‘lishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan:

birinchidan, turizm yirik global iqtisodiy faollik sifatida namoyon bo‘ldi. Butun dunyo bo‘ylab muhofaza qilinuvchi hududlarga boruvchilar soni shu darajada oshdiki, ularning tabiat majmuasiga yetkazishi mumkin bo‘lgan ziyoni jiddiy xavotirni keltirib chiqarmoqda. O‘z navbatida, turizmni ratsional tashkil etish tabiatni muhofaza qilishni moliyaviy jihatdan real qo‘llab-quvvatlashi va dastlabki ko‘rinishda saqlanishi kerak bo‘lgan tabiiy hududlarning ahamiyatini oshirish muqarrar bo‘lib qoldi. Demak, turizm tabiatni muhofaza qilish uchun «ishlashi», ya‘ni muhofaza qilinuvchi hududlar «o‘zi uchun o‘zi pul topishi» kerak bo‘ladi;

ikkinchidan, muhofaza qilinadigan tadbirlar faqatgina cheklash yoki ta‘qiqlash bilan, ayniqsa, mahalliy aholining manfaatlariga zid bo‘lsa, muvaffaqiyat qozonishi qiyin bo‘ladi. Mahalliy aholi ushbu faoliyatning bevosita hamkoriga aylanishi va ular uchun ham tabiatga ehtiyotkorona munosabat foydali bo‘lishi va bunda turizm yetakchi rol o‘ynashi lozim;

uchinchidan, turistlarning intilishlarida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tobora ko‘pchilik, ayniqsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda katta shaharlardan buzilmagan chekka tabiat qo‘yniga borishga intila boshlashdi. An’anaviy «plyaj-kurort» dam olish turiga qarama-qarshi ravishda faol-anglash yo‘nalishidagi turlarga talab oshib ketdi.

Demak, agroturizm tabiiy hududlarni hamda qishloq joylarni barqaror ruvojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida zamonamizning tabiatni muhofaza qilish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolari kesimida vujudga keldi.

Bundan tashqari, Yevropada agroturizmni takomillashtirishning agroturizm modellari paydo bo‘la boshladi. Hozirgi vaqtda bir nechta modellar mavjud:

1. Agro-turizmning fransuz modeli - agroturizmning ushbu modelining asosiy xususiyati gastronomiya va vinochilikdir. Uning mohiyati sayyohga uy va oshxona bilan ta‘minlanganligi, shuningdek sharob podvallari va qishloq mahsulotlarini ishlatish huquqi. Agar har bir dehqonning uzumzori va shuning uchun o‘zining

sharobi borligini hisobga olsak, fermer xo‘jaliklarini tanlash juda katta imkoniyat yaratadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, sharobdan tashqari bu yerda ko‘p miqdorda pishloqlar va konyaklar ishlab chiqariladi.

2. Agro-turizmning italyan modeli fransuz modeliga juda o‘xshash, lekin ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, gastronomiya bilan bir qatorda ushbu model sayyohlar tomonidan tarixiy joylarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan ko‘ngilochar dasturni taklif etadi. Bundan tashqari, ushbu model ko‘pincha faol sport turlarini ham birlashtiradi.

3. Angliya agroturizm modeli – bunda turarjoylar egasining uyida bo‘ladi. Fermer xo‘jaligidagi asosiy ko‘ngilochar sayohatlar, yurish, horse-riding va velosipedlar, shuningdek, yaqinda baliq ovlash va qo‘ziqorinlarni to‘plash. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda Buyuk Britaniyada tarixiy qishloq sayyohligi, ya‘ni turli davrlardagi qishloqlar bo‘ylab sayohat kabi yangi turistik tur paydo bo‘ldi.

4. Agroturizmning Germaniya modeli. Ushbu modelning asosiy xususiyati belgilangan turistik jorlarda ishlashdir. Mehmonlar va joy egalari har kuni fermada o‘simliklar, chorvachilikka g‘amxo‘rlik qilishda ishtirok etishadi va yer egalari bilan yana faoliyat turlarida ishtirok etishlari mumkin. Germaniyada agroturizmning ikki turi mavjud. Birinchisi, bevosita qishloq xo‘jaligi turizmi bo‘lib, fermerlikda yashab, egalariga yordam beradi. Ikkinchi tur – etno-turistik, bu turli xil festival va milliy marosimlarda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Quyida jadvalni aynan keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Yevropaning rivojlangan davlatlarida agroturizmni rivojlantirish modellari⁷


№	Davlatlar nomi va rivojlanish modeli	Agroturizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari
1	Fransuz modeli	Modelning asosiy xususiyati gastronomiya va vinochilikka asoslangan holda, fransuz oshxonasi bilan tanishish, shuningdek, dehqonlarning uzumzorlari, ularning sharob tayyorlash, pishloqlar va konyaklarni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etadi.
2	Italyan modeli	Modelning asosiy xususiyati gastronomiya bilan bir qatorda vinochilikdir. Shu bilan birga, turistlarga tarixiy joylarni ziyorat qilish va qishloq joylarida ko‘ngilochar dasturlarni taklif etadi. Yana bir ahamiyatli jihati, odatda faol sport turlarini ham birlashtiradi.
3	Angliya modeli	Modelning o‘ziga xos xususiyati, turistlar yer egasining uyida tunab qolishidir. Fermer xo‘jaligi bo‘ylab piyoda yurib, atrof-muhit bilan tanishish, horse-riding va velosipedda sayr qilish, shuningdek, baliq ovlash, qo‘ziqorin terishdan iborat. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda tarixiy-madaniy yo‘nalishda, ya‘ni turli davr va vaqtlardagi qishloqlarning paydo bo‘lish tarixi bilan tanishish kabi yangi turistik yo‘nalishlar shakllanmoqda.
4	Germaniya modeli	Agroturizmning ikkita asosiy turi mavjud. Birinchisi bevosita qishloq xo‘jaligi turizmi bo‘lib, fermer xo‘jaliklarida yashaydi va ishlashadi, yer egalarga yordam beradi. Ikkinchi turi, etno-turistik yo‘nalishida bo‘lib, mahalliy aholining turli xil milliy urf-odatlarini va festivallarida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

⁷ Jadval ma‘lumotlari muallif tomonidan bir tizimga keltirilib jamlangan.

Bundan tashqari, ayrim manbalarda agroturizm mahalliy aholining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy farovonligi kabi xarakteristikalar bilan qo‘shiladi.

Masalan, biz Avstraliya hukumati tomonidan yaratilgan formulani ochiq turizm va tabiiy tashkilotlar bilan birgalikda taqdim etamiz. Ushbu ta’rif “Agroturizmning milliy strategiyasi” hujjatida keltirilgan. Atama va uning ta’rifi quyidagicha: «Agroturizm ekologik barqaror turizm bo‘lib, tabiatda uning xususiyatiga ega, shu jumladan tabiiy muhit bilan tanishish va tushuntirish».

Shunga ko‘ra, agroturizm besh asosiy xususiyatga ega (1-rasm).




1-rasm. Agroturizmning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari⁸

- 1) tabiatga aylangan va asosan tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan;
- 2) bizning muhitimizga (yoki minimal) zarar yetkazmaydi, ya’ni, ekologik jihatdan barqaror;
- 3) ekologik ta’lim va xabardorlikka, tabiat bilan yaqin munosabatlar;
- 4) mahalliy ijtimoiy-madaniy sohani saqlab turish;
- 5) iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi va u mavjud bo‘lgan sohalarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Bu mezonlarga asoslanib, Amazon daryosidagi qayiqda agroturizmni tashkil qilish mumkin, ammo sayyohlar ko‘pincha boshqa turdagi yurishlar uchun kemani tark etishi – sayohatlar, velosipedlar, otda safarlar, fil yurishlari va h.k. Bunday sayohatlar sayyohlarni mahalliy madaniyat, o‘simlik va hayvonot dunyosi, mahalliy aholi bilan tanishtirish, shuningdek sayyohlar mintaqadagi ekologik muammolarni hal qilishlari kerak bo‘lgan sharoitda tanishishdir. Bu har qanday ekologik loyihalarga xayr-ehson shaklida amalga oshirilishi mumkin.

⁸ Muallif tomonidan olib borilgan tahlillar asosida ishlab chiqilgan.



2-rasm. Agroturizm turlari va shakllanishining o'zaro bog'liqligi⁹

⁹ Muallif ishlanmasi

Muayyan guruhdagi kishilar uchun maxsus turlar tashkil qilinadi. Xuddi shuningdek, aynan yosh bolalar uchun ekspeditsiya va sayohatlar, poxodlar, kattalarga, keksalarga mo'ljallangan, kichik va katta guruhdagi ishtirokchilar uchun mo'ljallangan turlar farqlanadi (2-rasmga qarang).

Shuningdek, turizm multiplikativ samaraga ega bo'lib, undan olingan dastlabki daromadlar mahalliy iqtisodiyotning barcha sohalarini harakatga keltiradi. Masalan, turistik avtobus haydovchisi yoki suvenir sotuvchi hunarmand topgan pulini benzin, oziq-ovqat sotib olishga sarflaydi va iqtisodiy faoliyat spiralsimon kechadi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturistik resurslardan foydalanishning shart-sharoitlari va holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi agroturizmning resurslari, ularning tavsif va tasniflari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm rivojlanishining hozirgi holati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida agroturizmni tashkil etishdagi muammolar, ularning yechimlari yuzasidan tadqiqotlar hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, turizm va mehmonxona xizmatlarining jami xizmatlardagi ulushi 0,1 foizni tashkil etmoqda. Turizm xizmatlari Nukus shahri, Beruniy, Ellikqal'a tumanlarida yo'lga qo'yilgan, xolos. Mintaqaning qolgan tumanlarida, ayniqsa, Ellikqal'a, Qo'ngirot, To'rtkul, Xo'jayli, Amudaryo tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun juda katta salohiyat mavjud va ulardan samarali foydalanish talab etiladi.

Mintaqada agroturizmni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan SWOT-tahlili natijalariga ko'ra, respublikada turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta bo'lib, bular qatoriga Quyi Amudaryo biorezervatida, turistik va rekreatsiya salohiyati yuqori bo'lgan Nukus shahrida, Ellikqal'a, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, To'rtko'l, Xo'jayli, Amudaryo tumanlarida turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmatlarini, ov turizmi, ziyorat, sport va sog'lomlashtirish, arxeoekoturizmni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini aytish mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida turistlarni jalb qilish mumkin bo'lgan obyektlar ro'yxati haqida gapiradigan bo'lsak, bu borada 2016-yil 31-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tegishli qarori ham qabul qilingan va shunga muvofiq, respublikamizda jami 196 madaniy meros va ziyorat obyektlari xatlovdan o'tkazilgan. Ularning 131 tasi arxeologik obyektlar bo'lsa, 25 tasi arxitektura obyektlari va 40 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Albatta, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, shuningdek, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan respublikamiz, xususan, Mo'ynoq tumanida olib borilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari natijasida bugun Qoraqalpog‘iston Respublikasi turistik salohiyati tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan hududlardan sanaladi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida o'tkazgan tahlillarimizdan kelib chiqqan holda mintaqa hududlarida agroturizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni tavsiya qilamiz (2-jadval).

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida tavsiya qilinayotgan
agroturizmni rivojlantirish yo‘nalishlari¹⁰**

Tumanlar	Rivojlantirish tavsiya qilinayotgan turizm turlari	Hududdagi turistik obyektlar
Qo‘ng‘irot	Agroturizm, ekoturizm, otda va tuyada sayohat, veloturizm, sport turizmi, ornitologik turizm	Ustyurt platosi (chinklar), hududda joylashgan tarixiy qal’alar, Nukus-Qo‘ng‘irot avtomobil yo‘li, qishloqlar
Mo‘ynoq	Agroturizm, ekoturizm, etnoturizm, ekstremal turizm, plyaj turizmi	Moy‘noq tumani, Ko‘ksuv, Shegeko‘l, Sudoche ko‘llari, Aqtumsiq tepaligi, qishloqlar
Qonliko‘l	Agroturizm, ekoturizm, etnoturizm, ov turizmi, ekoturizm	Amudaryo sohillari, tuman hududidagi ko‘llar, qishloqlar
Shumanay	Agroturizm, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm	Ustyurt platosi, hududdagi tarixiy qal’alar, qishloqlar
Nukus sh.	Ishbilarmonlik turizmi, ekoturizm, sport turizmi, gastronomik turizm	Muzeylar, Do‘stlik kanali sohili, restoran va mehmonxonalar
Xo‘jayli	Agroturizm, ziyorat va gastronomik turizm, etno va tarixiy turizm	Mizdakxan majmuasi, restoranlar, qishloqlar
Taxtakopir	Agroturizm, sog‘lomlashtirish turizmi, ekoturizm, ov turizmi	Qaratereng ko‘li, Beltau (Borshitau), Aydosqal’a, Qizilqum, qishloqlar
Beruniy	Ziyorat turizmi, speleoturizm, tarixiy, agroturizm, tabiiy va ilmiy turizm, ornitologik turizm	Tarixiy qal’alar, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, Sulton Uvays tog‘i va majmuasi, Amudaryo sohillari, qishloqlar
Ellikqal’a	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, tarixiy turizm, plyaj turizmi	Hududda joylashgan tarixiy qal’alar, Qizilqum, Aqchako‘l, qishloqlar
To‘rtko‘l	Ov turizmi, ekoturizm, tarixiy turizm, agroturizm	Hududda joylashgan tarixiy qal’alar, Qizilqum, qishloqlar
Amudaryo	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, tarixiy turizm, speleoturizm	Sulton Uvays tog‘i, hududda joylashgan tarixiy qal’alar, Chilpiq qo‘rg‘oni, Shayx Jalil majmuasi, Amudaryo sohillari, qishloqlar
Chimboy	Agroturizm, ekoturizm, ov turizmi, madaniy turizm, sog‘lomlashtirish turizmi	Qozoqdaryo to‘qay va ovchilik xo‘jaligi, Qusxanatau, issiq suvlar, qishloqlar
Kegayli	Agroturizm, ov, tarixiy-madaniy turizm, ot va tuyada turlar	Aqtuba ko‘li, Ishanqal’a, qishloqlar
Bo‘zatov	Agroturizm, ov, tarixiy-madaniy turizm, ot va tuyada turlar	Aqtuba ko‘li, tuman hududidagi ko‘llar, qishloqlar
Qorauzak	Ziyorat turizm, speleoturizm, agroturizm, ilmiy turizm	Sulton Uvays tog‘i, qishloqlar
Nukus t.	Agroturizm, ekoturizm, tarixiy-madaniy turizm, plyaj turizmi	Amudaryo sohillari, Dautko‘l, Ko‘ktau, Kerder arxeologik majmuasi, qishloqlar
Taxiatosh	Agroturizm, ornitologik turizm	Amudaryo sohillari, qishloqlar

2-jadvaldagi Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoq tumanlarida agroturizmni rivojlantirish uchun tavsiya etilayotgan yo‘nalishlarni ilmiy jihatdan asoslaydigan bo‘lsak,

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan va tavsiya qilingan.

Qo'ng'iro't tumani iqtisodiyoti Qoraqalpog'istondagi eng rivojlangan hududlardan bo'lib, tumanda gigant korxonalardan Qo'ng'iro't "Soda zavodi" va "UzKorGaz Chemical" qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'ng'iro't tumani Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradoshligi, betakror Ustyurt platosi chinklari (jarliklari), turli-tuman noyob baliqlar va qushlarni kuzatish (birdwatching) mumkin bo'lgan ko'llar, tarixiy qal'alarning (arxeoeko turizm) ovqatlanish, mehmonxona, savdo, maishiy xizmatlar, temiryo'llarning mavjudligi, tumandan zamonaviy xalqaro avtomagistral yo'lining o'tganligi (veloturizm), Ustyurt kengliklarida chorvadorlarning hayoti bilan tanishish, tuyalarda va otlarda yurish, avto-motosikllarda rallilar uyushtirish (sport, ekstremal turizm) orqali platoning ajoyib manzaralaridan bahramand bo'lish, Orol dengiziga va Sudoche ko'liga Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari hududidan borilishi plyaj, ekstremal va ornitologik turizmni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Qoraqalpog'iston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma'lum va gavjum sayohat yo'nalishlarini taklif qilishi mumkin. Orol dengiziga ekstremal ekskursiyalardan boshlab, Nukusda I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyiga tashrif buyurish Qoraqalpog'istonning boy merosi, O'zbekistonning boshqa hududlaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega madaniyat va an'analarni o'z ichiga oladi. Aynan shuning uchun ham Qoraqalpog'istonda barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qo'shish uchun hududdagi turistik takliflarning barcha turlarini o'rganish, infratuzilma va xizmatlarni yaxshilash zarur (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm rivojlanishi ko'rsatkichlari¹¹

Yillar	Turistik xizmatlar (mlrd. so'm)	Tashrif buyuruvchi turistlar soni (kishi)	Turistik tashkilotlar soni (dona)	Mehmonxonalar soni (dona)	Turistik obyektlar soni (dona)	Turizm sohasida ishlovchi kadrlar soni (kishi)
2006	3,0	3200	10	2	30	15
2007	3,5	3900	13	3	36	21
2008	4,1	4500	19	5	44	26
2009	4,2	4700	26	7	60	35
2010	4,9	5000	30	8	64	40
2011	5,0	5300	33	8	79	43
2012	5,0	5700	36	8	86	45
2013	6,0	6300	39	9	89	47
2014	7,0	7800	46	10	93	50
2015	10,0	10000	56	11	98	55
2016	12,0	25600	62	18	112	72
2017	13,0	28900	68	29	136	120
2018	291,8	429000	75	36	159	142
2019	300,0	651400	83	48	297	200
2020	27,0	43000	95	63	306	260
2021	219,5	308000	110	84	313	340
2022	227,6	350000	135	130	320	390

¹¹ Mazkur jadval Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizmni rivojlantirish va madaniy boyliklarni asrash vazirligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

3-jadvalda 2006-2022-yillar mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar tahlil qilingan. Unda 2006-yilda ko‘rsatilgan turistik xizmatlar hajmi 3 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 227,6 mlrd. so‘mga yetgan. Tashrif buyuruvchi turistlar soniga kelsak, 2006-yilda 3200 turist kelgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 350000 turist kelgan. Tahlillarga ko‘ra, 2016-yildan boshlab turistlar oqimi oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga eng muhim sabablardan biri mamlakatimizda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor natijasidir. Shuningdek, 2019-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida kelgan turistlar soni 651400 ga oshishi sababini 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqoralarining kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi №2836-son qarorining qabul qilinishi bilan izohlash mumkin¹².

Ushbu qaror doirasida elektron kirish vizalarining yagona ma’lumotlar bazasi, elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi «E-VISA.UZ» shakllantirildi, lekin 2020-yilda turistlarning tashrif buyurish dinamikasi COVID – 19 koronavirus pandemiyasi tufayli pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

Agroturizmning hududga iqtisodiy ta’sirni prognoz qilish uchun jami xarajatlar qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlariga taqsimlanadi. Agroturizmda mahsulot sotib olish xarajatlari, g‘allachilik, sabzavot va polizchilik, meva yetishtirish, issiqxona, ko‘chat va gulchilik, vino zavodlari kabi tarmoqlarda daromad yo‘nalishlarini aniqlash lozim boladi. Umumiy xarajatlar va iqtisodiy ta’sirni baholash uchun foydalanishga tayyor ijtimoiy hisob matritsasini ko‘rib chiqamiz. Bunda agroturizm maqsadlarida hududga turistlarning kirish va chiqish soni, jami turizm xizmatlari, bandlik va qo‘shilgan qiymatni ta’minlash uchun mintaqaviy ijtimoiy hisob tizimidan foydalanadi. Turistlarning kirish va chiqish soni “n” ta noma’lumli “n” ta chiziqli tenglamalar sistemasidan iborat. Shu sababli, matritsali ko‘rinish ushbu tarmoqlararo munosabatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi, bu yerda ustunlar sektorga kiritilgan ma’lumotlarni, qatorlar esa sektor natijalarini ifodalaydi. Tegishli $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$ natijalariga ega, agroturizmning n ta sektorga ega iqtisodiy jarayonlarni ifodalash mumkin.

Umumiy ishlab chiqarish T barcha tarmoqlarning ishlab chiqarish yig‘indisiga teng. Bu yerda tarmoqlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir tarmoqdan olingan mahsulot boshqa tarmoqlar uchun (oraliq mahsulot) ishlab chiqarish sifatida foydalaniladi. Iste’molchilarning yakuniy talabi davlat xaridlari, shaxsiy xaridlar va eksportdir. Shuning uchun jami talab oraliq mahsulot va yakuniy iste’mol talabining yig‘indisidir. Ishlab chiqarishni A, kirishni W bilan, iste’molchi talablarini esa Y bilan belgilaymiz. Masalan, agar qishloq xo‘jaligidagi bir tarmoqning umumiy mahsuloti A_1 bo‘lsa, w_{11} bir tarmoq mahsulotining 1-sektor uchun kirish sifatida foydalaniladigan qismidir. Xuddi shunday, w_{12} 1-sektor mahsulotining 2-sektorga kiradigan qismini, w_{21} esa 1-sektor uchun kirish sifatida foydalaniladigan 2-sektor mahsulotining qismini ifodalaydi. Xuddi shunday, $Y_1, Y_2, Y_3, \dots, Y_n$ ham 1, 2,

¹² www.lex.uz

3,...n tarmoqlaridan ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi, mos ravishda yakuniy iste'molchilar talab qiladi.

$$\begin{aligned} A_1 &= w_{11} + w_{12} + w_{13} + \dots + w_{1n} + Y_1 \\ A_2 &= w_{21} + w_{22} + w_{23} + \dots + w_{2n} + Y_2 \end{aligned} \quad (1)$$

$$\begin{aligned} A_3 &= w_{31} + w_{32} + w_{33} + \dots + w_{3n} + Y_3 \\ A_n &= w_{n1} + w_{n2} + w_{n3} + \dots + w_{nn} + Y_n \end{aligned} \quad (2)$$

$$A = W_i + Y \quad (3)$$

bu yerda, i ustun vektorini ifodalaydi. j sektorida ishlab chiqariladigan yakuniy mahsulotning bir birligi uchun i sektoridagi a_{ij} birliklaridan foydalanishi kerak, bunda a_{ij} texnik koeffitsientdir

$$A_j = w_{ij} / a_{ij} \quad (4)$$

Demak, i sektor mahsulotiga yakuniy talab:

$$A_i = \alpha_{i1}A_1 + \alpha_{i2}A_2 + \alpha_{i3}A_3 + \alpha_{i4}A_4 + \dots + \alpha_{in}A_n + Y_i \quad (5)$$

(6) tenglama uchun matritsa ko'rinishi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$A = XA + Y \quad (6)$$

bu yerda, X – tarmoqlar bo'yicha texnik koeffitsient matritsasi, A – barcha tarmoqlarning umumiy ishlab chiqarish vektori, Y – yakuniy iste'mol talabi vektori.

Chiqish ko'rsatkichlari uchun (7) tenglamani olamiz.

$$A = (I - X)^{-1}Y \quad (7)$$

Bu yerda, I - Identifikatsiya matritsasi, $(I - X)^{-1}$ matritsasi boshqa tarmoqning yakuniy talabining ortishi tufayli har bir industriyada mintaqaviy ishlab chiqarish darajasini ifodalaydi. Shuning uchun bu teskari matritsa ko'paytma matritsasi deb ham ataladi¹³. Har qanday i sektori uchun (7) tenglama $A_i = (I - X)^{-1}Y_i$ shaklida taqdim etilishi mumkin, bu esa agroturizmning yakuniy talabini qondirish uchun zarur bo'lgan mahsulotini beradi.

Shuningdek, "Arxeologik turizm" yo'nalishiga Chilpiq, Ayaz-qal'a, Tuproqqal'a, Gyaurlar qal'a, Djampiq qal'a, Iyshan qal'a, Qizil qal'a, Kat qal'a, Djambas qal'a arxeologik obyektlari kiritilgan.

Shu quduqlar atrofida kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar uchun yer ajratish.

Qazaqdarya OFY hududida milliy urf-odatlarini saqlab kelayotgan, yashash tarzida chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanuvchi uylarni agroturizmni rivojlantirishga jalb qilish.


a) Aholi orasida turizmga qiziquvchilarni mehmon uylarini tashkil qilishga yordam berish (ular uchun seminarlar tashkil qilish).

b) Turistlar uchun belgilangan uylarning birinchi darajali xizmat ko'rsatish uchun shart sharoitlarini yaxshilash (ularga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish).

¹³ Clouse, C. (2020b). Understanding Other Property Income (OPI) – IMPLAN - Support. IMPLAN. Available online at: <https://support.implan.com/hc/en-us/articles/360016072114-Understanding-Other-Property-Income-OPI>

Agroturizm mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, chunki to‘g‘ri rivojlanishi davlat xazinasiga yaxshi daromad keltirishi mumkin. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarda aks etishi mumkin, agroturizmning ularga beradigan daromadlari juda katta bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilganlarga qo‘shimcha ravishda, agroturizmning rivojlanishi tabiiy go‘zallikni saqlash, noyob o‘simlik va hayvonot turlarini saqlab qolish va qayta tiklashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olib, qonunchilikda belgilangan vazifalar va hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda, Qoraqalroq‘iston Respublikasidagi agroturizmni rivojlantirish modelini taklif qilamiz (3-rasm).



3-rasm. Qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish modeli¹⁴

Mintaqadagi qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish uchun ularning turistik va rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladigan obyektlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish zarur.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hudud (MQTH)larning atrofidagi qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish modeli orqali ulardan turistik maqsadda foydalanishni yo‘lga qo‘yish, mahalliy aholini ish bilan ta‘minlash, ularning ekologik va turistik madaniyati va bilimlarini oshirish, qishoqlarda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga erishamiz.

¹⁴ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

